

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.14.01 RAQAMLI ILMIIY
KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

NAJMIDDINOVA GULNOZA UMAROVNA

**MEDIADA VIZUAL NARRATIV: SHAKLLANISHI, TENDENSIYA VA
ISTIQBOLLARI**

10.00.09 – Jurnalistika

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of
philosophy (PhD) on philological sciences**

Najmiddinova Gulnoza Umarovna Mediada vizual narrativ: shakllanishi, tendensiya va istiqbollari	5
Нажмиддинова Гулноза Умаровна Визуальный нарратив в медиа: формирование, тенденции и перспективы	25
Najmiddinova Gulnoza Umarovna Visual narrative in media: formation, trends and prospects	51
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works	56

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.14.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

NAJMIDDINOVA GULNOZA UMAROVNA

**MEDIADA VIZUAL NARRATIV: SHAKLLANISHI, TENDENSIYA VA
ISTIQBOLLARI**

10.00.09 – Jurnalistika

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Fil1476 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.uzjoku.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mo'minova Patima Izzatullayevna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mamatova Yakuta Muxamedjanovna
filologiya fanlari doktori, professor

Doniyorov Salim Musurmonovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" nashrlari birlashgan tahririyati bosh muharriri

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.14.01 raqamli Ilmiy kengashining 2024-yil "___" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100147, Toshkent shahri. Markaz-5, 88-uy. Tel.: (99871) 207-09-06; email: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (Manzil: 100147, Toshkent shahri. Markaz-5, 88-uy. Tel.: (99871) 207-09-06; email: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil "___" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.A. Mo'minov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi, f.f.d., professor

A.I. Safarov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.f.d., dotsent

N.F. Muratova

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d.,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy mediamuhitda vizual axborotning nisbati tobora ortib bormoqda. Voqelikni tasvir va obrazlar orqali idrok etuvchi avlod shakllanyapti. Klip-madaniyat va kliplashgan ong haqidagi mulohazalar bugungi ijtimoiy voqelikda o'z isbotini topdi. Shuningdek, media kanallarining tekstosentrik taqdimotdan vizual, audiovizual, multimedaviy shakllarga o'zgarayotganligi yaqqol namoyon bo'lyapti. Mazkur sharoitda vizuallik, vizual kontent, vizual narrativlar va umuman – vizual kommunikatsiyani ilmiy tadqiq etish tobora ommalashib, dolzarblik kasb etib bormoqda. Bu bir necha omillar bilan bog'liq. Birinchidan, media va texnologiyalar shiddatli rivojining zamonaviy bosqichida vizuallikni tadqiq etish ushbu o'zgarishlarning qamrovi, inson idroki, xatti-harakatlari, muloqot tarzi, usul va odatlariga ta'sirini tushunishni osonlashtiradi. Ikkinchidan, vizual kontentni tahlil va talqin qilish ko'nikmalari tasvirning ma'no yuki, konteksti kabilarni ilg'ashga va bu orqali tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, so'nggi yillarda vizuallik fundamental ahamiyat kasb etgan soha va yo'nalishlar tobora rivojlanmoqda. Bular aksar hollarda turli fan tarmoqlari kesishuvida shakllanganligi bois, ularning ilmiy tadqiqi yangicha, qorishiq metodologiyani talab qilyapti.

Global miqyosdagi ilmiy tadqiqotlarda vizuallik, xususan, narrativ (bayon) ning tasvirga tayangan shakllari turli aspektlarda o'rganilyapti. Jumladan, madaniyat va san'at, adabiyot, tilshunoslik, kommunikologiya, psixologiya, sotsiologiya kabi sohalarda ularning ilmiy obyekt sifatida tanlanishi biz yuqorida tilga olgan ijtimoiy voqelikka javobdir. Jurnalistikada ham vizuallashuv, axborot va ma'lumotlarni tasviriy formatlarda taqdim etish dolzarb jarayonlardan biridir. Ushbu o'zgarishlarni ilmiy jihatdan o'rganish nafaqat klassik jurnalistika va publitsistika nazariyasi, balki san'at, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va psixologiya singari sohalarga oid izlanishlarni ham inobatga olishni taqozo etadi.

O'zbekiston mediamakoni global axborot kengligining bir qismi sifatida rivojlanmoqda. So'nggi yillarda axborot va media sohasi rivoji, so'z va ommaviy axborot vositalari erkinligi, davlat va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi mamlakat taraqqiyotining asosiy strategik yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bunday sharoitda mass-media kontenti ham shaklan, ham mazmunan sezilarli o'zgarishlarga uchrab, o'zbek media amaliyoti yangi taqdimot usullarini o'zlashtirishga, nazariya esa ularning o'ziga xosligi, milliy makonda rivojlanish xususiyatlari va istiqbollari tadqiq etishga zarurat sezmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan yo'llagan tabrigida axborot sohasida miqdor ko'rsatkichlarini sifat ko'rsatkichlariga aylantirish, milliy jurnalistika taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish dolzarb vazifa ekanligini, O'zbekiston media kompaniyalari ham jahon axborot maydonida munosib o'rin egallab, global siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishga intilayotganini qayd etadi. Bu borada samaradorlikka erishishda yechimlardan biri sifatida "ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy axborot texnologiyalari, serqirra tahlil usullarini o'zlashtirib,

doimo izlanib yashash, milliy jurnalistikamizning yangi avlodini tarbiyalash”¹ zaruratini ta’kidlaydi. Shunday ekan, media sohasida ommalashib borayotgan taqdimot shakl va usullarining nazariy jihatdan tadqiq etilishi va ular ta’sirida amaliyotda yuzaga kelayotgan o’zgarishlar, tendensiyalar borasida optimal prognozlarni berish ayniqsa muhimdir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni² doirasida ommaviy axborot vositalariga oid bandlar, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Internet jahon axborot tarmog’ida milliy kontentni rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 2019-yil 21-oktabrdagi 888-son Qarorida³ ko’rsatilgan maqsad-vazifalar ijrosini ta’minlashda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari”ning ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Vizuallik, vizual obrazlar va vizual narrativ san’atshunoslik (U. Mitchell, V. Sklyarova, N. Mirzoyev, N. Zlidneva)⁴, madaniyatshunoslik va sotsiologiya (D. Baxmann-Medik, Ye. Ishchenko, A. Ivanov)⁵ sohalariga oid ilmiy izlanishlarda atroflicha o’rganilgan.

Narrativga ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yondashish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Shu bois bu boradagi izlanishlar jahon hamjamiyati uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Narratologiyaning fan sifatida rivojlanishida M. Baxtin, V. Shmidt, S. Todorov, S. Chetman, V. Tyupa, D. Herman, M. Rayyanlarning ilmiy izlanishlari⁶ muhim rol o’ynagan.

¹ Mirziyoyev, Sh. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. 2022-yil 27-iyun – URL: <https://president.uz/uz/lists/view/5294>

² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-son Farmoni. 28-yanvar 2022-yil. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5842914>

³ O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Internet jahon axborot tarmog’ida milliy kontentni rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 888-son Qarori. 21-oktabr 2019-yil. URL: <https://lex.uz/en/docs/-4566279>

⁴ Mitchell, W.J.T. Picture Theory. Chicago: University of Chicago Press. 1994. Склярова, В.С. Визуальные повороты и зрелищная культура: теоретические аспекты и культурные практики // Вестник культуры и искусств. 2017/4 (52). Мирзоев, Н. Как смотреть на мир. — М.: Ад Маргинем Пресс, Музей современного искусства «Гараж», 2019. Злыднева, Н. Визуальный нарратив: опыт мифопоэтического прочтения. - М.: “Индрик”, 2013.

⁵ Бакхманн-Медик, Д. Культурные повороты. Новые ориентиры в науках о культуре / Пер. с нем. С. Ташкенова. — М.: Новое литературное обозрение, 2017. Ищенко Е. Н. «Визуальный поворот» в современной культуре: опыт философской рефлексии // Вестник ВГУ. №2. 2016. Иванов, А.Г. Социальная мифология как развивающаяся система // Вестник Пермского университета. Философия. Психология. Социология. 2016. Вып. 4(28).

⁶ Бахтин, М. Вопросы литературы и эстетики. М.: Худ. лит. 1975. Шмидт, В. Нарратология. 2-е издание – М: Янко-Слава, 2004. Шмидт, В. Нарратология. 2-е издание – М: Янко-Слава, 2004. Тодоров, Ц. Теории символа / Перевод с французского Б. Нарумова. — М.: Дом интеллектуальной книги, Русское феноменологическое общество, 1998. — 408 с. Chatman S. Story and Discourse. Narrative Structure in Fiction and Film. N.Y.: Cornell University Press. 1978. Тюпа В.И. Нарратология как аналитика повествовательного дискурса (Литературный

Vizual narrativlar ilmiy obyekt sifatida tadqiq etilgan izlanishlar qatorida T. Kaputo, Sh. Pimenta, R. Puvayya, N. Zlidneva, M. Skaflarning ilmiy tadqiqotlari⁷ni keltirish mumkin. Bulara vizual narrativ tasvir orqali mazmuni yetkazish texnikasi o'ziga xosligi nuqtayi nazaridan, audiovizual va interaktiv shakllar bilan bog'liq holda (Kaputo, Pimenta, Puvayya), tasviriy san'at predmeti (Zlidneva), shuningdek, adabiy-ijodiy faoliyat turi sifatida (Skaf) o'rganilgan. Mediada narrativ mavzusi multimediyaviy jurnalistika doirasida D. Kachanov tomonidan tadqiq etilgan⁸. Vizual narrativlar mavzusi bu aspektida o'rganilmagan.

Mahalliy miqyosdagi izlanishlar asosan vizual kontentni yaratish texnologiyasi, uning qabul qilinishida qo'llaniladigan instrumentlar, dizayn samaradorligi kabi tashqi ta'sir komponentlari tahliliga tayanadi. Tasniflangan vizual narrativ namunalarning ayrimlari, xususan, fotopublisistik janrlar, statik infografika va chartlar, reklama va PR maqsadlarini ko'zlovchi vizual kontent o'zbekistonlik media izlanuvchilari tomonidan ham tadqiq etilgan. Jumladan, N. Muratova, M. Nuriddinova, S. Doniyorov, S. Mullayeva, N. Daminova kabi tadqiqotchilar ishlarida vizual va multimediyaviy kontent turli darajada o'rganilgan⁹.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Mass-media nazariyalari, tarixi va istiqbolining dolzarb muammolari" amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi vizual narrativ va vizual storitelling hodisalarini o'rganish, jurnalistika va publisistikada ularning imkoniyatlarini qo'llash istiqbollari aniqlash, vizual narrativlarning kommunikativ xususiyatlari, tarixiy ildizlarini, o'zbek media segmentida e'tibor qaratilmayotgan jihatlari, ta'sir xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

текст: проблемы и методы исследования; Приложение, Серия Лекции в Твери") – Тверь: Твер. гос. ун-т, 2001. Herman, D. (2011, September 13). Basic Elements of Narrative. John Wiley & Sons. Narrative across media: the languages of storytelling / edited by Marie-Laure Ryan. University of Nebraska Press, 2004

⁷ Caputo, T. C. (2003). Visual storytelling: The art and technique. Watson-Guptill Publications. P.29 - <https://archive.org/details/visualstorytelli0000capu/page/28/mode/2up?view=theater>; Pimenta, S.K., & Poovaiyah, R. (2010). On Defining Visual Narratives. (электрон ресурс) - URL: <https://www.semanticscholar.org/paper/On-Defining-Visual-Narratives-Pimenta-Poovaiyah/fcdd1dc30c545ac1f1f81841ce87fbd26a09002d>; Злыднева, Н. Визуальный нарратив: опыт мифопоэтического прочтения. - М.: "Индрик", 2013; Скаф, М. «Визуальная литература. Речевые фигуры и тропы». Детские чтения, т. 6, вып. 2, декабрь 2014 г. – С.209-210 <https://detskie-chtenia.ru/index.php/journal/article/view/138>

⁸ Качанов, Д.Г. Трансформация нарративных приемов в мультимедийных журналистских проектах.: Автореферат дисс. на соискание уч.степени канд. наук по специальности 10.01.10 - Журналистика - Москва: МГУ. 2021 - <https://www.dissercat.com/content/transformatsiya-narrativnykh-priemov-v-multimediinykh-zhurnaliststikh-proektakh/read>

⁹ Муратова Н.Ф. Журналистика в Интернет: особенности on-line изданий Узбекистана и их функционирование в условиях глобального информационного рынка: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Т.: НУУз, 2011; Nuriddinova M.Ch. Mediakonvergensiya sharoitida multimediyaviy jurnalistika: filol. fan. bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. Avtoreferati – T: O'zDJTU, 2020; Doniyorov S. M. Mediakonvergensiya sharoitida gazetalari tahririyatlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari (O'zbekiston misolida, 2010 yildan keyingi davr): filol.fan. bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. Avtoreferati – T: O'zDJTU, 2020; Mullaeva S.S. Konvergent tahririyatlarda jurnalist mahorati masalalari: filol.fan. bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. Avtoreferati – T: O'zJOKU, 2022

Tadqiqotning vazifalari. Dissertatsiya ishi maqsadlarini amalga oshirishda quyidagi vazifalar qo'yildi:

- vizual kommunikatsiya vositalarining ijtimoiy-madaniy voqelikka, shu jumladan, axborot sohasiga ta'sirini o'rganish;
- narrativ tushunchasini o'rganish;
- vizual narrativ tushunchasiga ilmiy jihatdan ta'rif va tavsif berish;
- vizual narrativda kommunikatsiya o'ziga xosligini o'rganish;
- vizual narrativ asarlarni tasniflash;
- vizual narrativ asarlarning badiiy va semiotik xususiyatlarini tahlil qilish;
- vizual narrativ asarlarning yirik ko'rinishi bo'lmish komikslar rivojlanishi xronologiyasi, ifoda elementlarini o'rganish;
- jurnalistikada vizual narrativning o'rni va qo'llanilishini o'rganish;
- vizual storitelling istiqbollarini tadqiq etish;
- O'zbekiston mediasida vizual narrativ shakllarini qo'llash imkoniyatlarini, mavjud muammolarni o'rganish va bu borada takliflarni shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti. Xalqaro hamda milliy mediamakonda bosma hamda veb formatlarida taqdim etilgan vizual narrativ namunalari (grafik roman, vizual novella, komiks, vebtunlar, bolalar kitoblari, xorij va milliy nashrlarda e'lon qilingan komik-striplar, vizual hamda multimediamiy storitelling yo'nalishida tayyorlangan materiallar) tadqiqot obyektidir. Bunda asosiy e'tibor AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Avstraliya, Rossiya va O'zbekiston mediamakoniga qaratildi.

Tadqiqotning predmeti sifatida bosma va Internet-mediadagi vizual narrativ kontent yaratishdagi tendensiya, usul va an'analar, vizual narrativlarning kommunikativ, poetik, semantik o'ziga xosligi, matn va janr-tematik xususiyatlari, qo'llanilish usullari tanlandi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot doirasida muallif umumiy (analiz, sintez, induksiya, deduksiya) va maxsus (tarixiy, tipologik, qiyosiy) tadqiqot metodlaridan foydalangan. Vizual narrativlarning o'ziga xos jihatlari, poetik va semantik xususiyatlari, jurnalistikada qo'llanilishini o'rganishda kontent-tahlil metodi qo'llanilgan. Shuningdek, O'zbekiston auditoriyasining mediaiste'mol xususiyatlari borasida umumiy xulosalarni shakllantirish va bunga chambarchas tarzda mahalliy mediamuhitda vizual narrativlarning istiqbollarini prognozlash maqsadida tadqiqotchi kuzatuv, onlayn va og'zaki so'rov usullarini qo'llagan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

vizual, matn va audiovizual narrativlar tasvir va ta'sirchanlik jihatidan ifoda vositalari va texnikasi bilan o'zaro farqlanishi sababli vizual narrativlar audiovizual kontentdan ajratilgan holda tasniflanishi isbotlangan;

vizual narrativlar tadqiqida tasviriy va so'z san'atlari kesishuvidagi nazariy-metodologik asos yaratish zarurati aniqlanib, "vizual adabiyot", "vizual publisistika" tushunchalarini fanga kiritish dalillangan;

narratologik tadqiqotlardagi sotsiologik yondashuv asosida mediada vizual narrativ hodisasi o'zining polikod va polifonik xususiyati sababli semantik struktura, hikoya olami sifatida qabul qilinishi lozimligi asoslangan;

vizual narrativ asarlarga adabiyot va publisistika darajasida emas, bolalarga mo'ljallangan va hajviy kontent sifatida qarashning ustunligi, mediamuhitda tekstosentrik hamda videosentrik yondashuvning kuchliligi sababli milliy mediamakonda vizual narrativlar rivoji sur'atlari sustlashayotganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

vizual narrativlarning turli mezonlar asosidagi tasnifi amalga oshirildi;
singulyar va sekvensional vizual narrativ tushunchalariga tavsif va ta'rif berildi;

sekvensional vizual narrativ turlarining taksonomiyasi tuzildi;

OAV vizual kontenti tasnifi amalga oshirildi;

grafik yoki komiks-jurnalistika yo'nalishi mazmuni, ko'rinishlari tahlil qilindi;

O'zbekistonda vizual narrativlar rivojiga oid tarixiy-xronologik faktlar tizimlashtirildi, istiqbollari borasidagi prognozlar berildi, sohani rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda foydalanilgan nazariy ma'lumotlar ilmiy adabiyotlardan olingan. Ilmiy tahlilga tortilgan bosma va veb materiallarni tahlil qilishda, jahon tajribasini o'rganishda internet manbalaridan foydalanilgan. Tahlillar, ilmiy-amaliy xarakterdagi xulosalar tasnifiy, qiyosiy metodlar bilan asoslangan. Ilmiy fikr va takliflar amaliyotda keng qo'llanilgan, tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati vizual narrativ, vizual storitelling, borasidagi tadqiqotlarning umumlashtirilganligi, vizual narrativ va uning turlariga tavsif berilganligi, ijodiy faoliyatning vizual shakllari alohida o'rganilishi zarurligi, tasvirning verbal vositalarga muqobil bo'la olishi ilmiy asoslanganligi, kelgusida O'zbekistonda vizual tadqiqotlar bo'yicha olib boriladigan izlanishlar uchun fundamental manba bo'lib xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa O'zbekistonda vizual narrativ formatlarining rivojlanish tendensiyalari, istiqbolli yo'nalishlarining belgilanganligi, bu borada mamlakatda mavjud tajribaning tizimlashtirilib, tahlil etilganligi, muammolarning aniqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Mediada vizual narrativning shakllanishi, tendensiya va istiqbollarni o'rganish orqali shakllantirilgan xulosa va amaliy takliflar asosida:

vizual, matn va audiovizual narrativlarning tasvir va ta'sirchanlik jihatidan ifoda vositalari va texnikasi bilan o'zaro farqlanishini asoslovchi va shu sababdan vizual narrativlar audiovizual kontentdan ajratilgan holda tasniflanishi va o'rganilishi borasidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining ma'rifiy-targ'ibot faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 3-maydagi 0205/17-son ma'lumotnomasi). Natijada yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni zararli axborotdan himoya qilish, ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etishga yo'naltirilgan ma'rifiy va foydali milliy kontentlar yaratilgan;

vizual narrativlar tadqiqida tasviriy va soʻz sanʼatlari kesishuvidagi nazariy-metodologik asos yaratish zarurati haqidagi xulosalar, mediada vizual narrativ hodisasi oʻzining polikod va polifonik xususiyati sababli semantik struktura, hikoya olami sifatida qabul qilinishi lozimligi borasidagi fikrlardan Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy taʼlimni rivojlantirish tadqiqotlari va ilgʻor texnologiyalarni tatbiq etish markazining oʻquv-uslubiy faoliyatida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy taʼlimni rivojlantirish tadqiqotlari va ilgʻor texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2023-yil 7-martdagi 02/01-01-30-son maʼlumotnomasi). Natijada 60320100 – Jurnalistika (Internet jurnalistika)” bakalavriat taʼlim yoʻnalishi oʻquv rejasiga “Onlayn mediada narrativ” hamda “Transmediaviy storitelling asoslari” nomli yangi fanlar kiritilib, ularning oʻquv dasturlari yaratilgan;

vizual, matn va audiovizual narrativlar tasvir va taʼsirchanlik jihatidan ifoda vositalari va texnikasi bilan oʻzaro farqlanishi sababli vizual narrativlar audiovizual kontentdan ajratilgan holda tasniflanishini isbotlovchi xulosalar Respublika maʼnaviyat va maʼrifat markazining maʼnaviy-maʼrifiy targʻibot faoliyatida samaradorlikni oshirishda qoʻllanilgan (Respublika maʼnaviyat va maʼrifat markazining 2023-yil 1-martdagi 02-15/167-son maʼlumotnomasi). Natijada Markazning “Oyina.uz” portaliga interaktiv multimedaviy (longrid) va vizual kontent (infografika) tayyorlangan, “Maʼrifat” targʻibotchilar jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan “Maʼrifat ziyo” platformasi boyitilgan va optimallashtirilgan;

vizual, matn va audiovizual narrativlar tasvir va taʼsirchanlik jihatidan ifoda vositalari va texnikasi bilan oʻzaro farqlanishi sababli vizual narrativlar audiovizual kontentdan ajratilgan holda tasniflanishini isbotlovchi xulosalar “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining ijtimoiy-maʼrifiy faoliyatiga tatbiq etilgan, partiya ustuvor vazifalarini bajarish mexanizmlarini tashkil etishda, xususan, yoshlarni milliy mustaqillik, milliy anʼanalar va urf-odatlarni asrab-avaylash ruhida tarbiyalashda ommabop, zamonaviy formatlarni topishda qoʻllanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2023-yil 8-fevraldagi 15/F-son maʼlumotnomasi). Natijada partiya targʻibot materiallarida vizual kontent (infografika, fotoreportaj va hkz.) samaradorligi va soni ortgan;

vizual narrativ asarlarga adabiyot va publisistika darajasida emas, bolalarga moʻljallangan va hajviy kontent sifatida qarashning ustunligi, mediamuhitda tekstosentrik hamda videosentrik yondashuvning kuchliligi sababli milliy mediamakonda vizual narrativlar rivoji surʼatlari sustlashayotganligi haqidagi xulosalardan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yangi Oʻzbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetolari va gazetalar veb-sayti (www.yuz.uz), Oʻzbekiston Respublikasi “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining nashri – “Milliy tiklanish” gazetasi va gazetaning elektron nusxalari faoliyatini takomillashtirishda foydalanilgan (“Yangi Oʻzbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetolari birlashgan tahririyatining 2023-yil 8-fevraldagi 25-son maʼlumotnomasi; “Milliy tiklanish” gazetasining 2023-yil 7-fevraldagi 02/01-son maʼlumotnomasi).

Natijada gazetalar va ularning “Telegram” messendjeridagi kanallarida e’lon qilinadigan infografika va boshqa vizual kontent sifatini oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi titul sahifasi, mundarija, kirish, uch bob, sakkiz paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati, glossariy va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 146 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi, uni respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusi bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatyasi, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Vizual narrativ borasidagi ilmiy-nazariy qarashlar tadriji**” deb nomlangan birinchi bobida vizualizatsiya jarayonlari va tasvir “inqiloblari”ning axborot sohasiga, madaniyatga ta’siri, narrativ tushunchasi va narratologik tadqiqotlardagi asosiy yondashuvlar, vizual narrativ tushunchasi va uning kommunikativ o‘ziga xosligi tahlil qilingan.

Axborot hajmining ortishi natijasida mazmuni maksimal darajada tushunarli va o‘zlashtirish uchun qulay shaklda yetkazish zarurati yuzaga keldi. Bu vizual formatlar ommalashuvini ta’minladi. “Matn” tushunchasining o‘zi mazmun qirralarini kengaytirdi. Endi u sintaktik emas, balki semantik birlik sifatida talqin etila boshlandi. Bu dastlab faqat verballik bilan bog‘liq, deb ta’kidlangan narrativni turli formatlarda tadqiq etish imkoniyatini berdi. Germaniyalik tadqiqotchi D. Baxmann-Medik o‘zining “Madaniy burilishlar: madaniyat haqidagi fanlarda yangi mo‘ljallar” kitobida tasvir tushunchasiga “u faqat belgi, surat va illustratsiyalargina emas; tildan mustaqil o‘ziga xos ta’sir kuchini shakllantiradi”¹⁰, deya tavsif beradi. Tasvirning tildan alohida kod tizimi ekanligi rossiyalik semiotik olim Yu. Lotman ilmiy ishlarida ham qayd etilgan¹¹. Sotsiolog R. Bart ham o‘z ilmiy izlanishlarida tilning ikki ko‘rinishi – tabiiy obyekt-til va sun’iy metatil

¹⁰ Бахманн-Медик, Д. Культурные повороты. Новые ориентиры в науках о культуре / Пер. с нем. С. Ташкенова. — М.: Новое литературное обозрение, 2017 – С.395

¹¹ Лотман, Ю. Семиотика кино и проблемы киноэстетики – Таллин: Издательство "Ээсти Раамат", 1973 – С.6

haqida fikr bildiradi¹². Tilshunos U. Fitch ham alohida “belgilar tili” haqida mulohaza yuritadi¹³. Bu kabi izlanishlar tasvirning bugun universal ifoda vositasi sifatida o‘z mavqeyini mustahkamlab borayotganligini bildiradi.

Gumanitar fanlar sohasida vizuallik, vizual obraz singari hodisalarni tadqiq etgan izlanishlar talaygina. “Vizual tadqiqotlar” (Visual study) degan umumiy nom bilan ataluvchi mazkur ishlarda ikki xil yondashuv ajratiladi: 1) san’atshunoslik (U. Mitchell, B. Stafford, N. Mirzoyev, J. Elkins) nuqtayi nazaridan obraz va tasvirning tanqidiy tahliliga e’tibor qaratiladi va vizual tadqiqotlar negizida aynan vizuallikning barcha shakllari o‘rganilishi yotishi ta’kidlanadi; 2) madaniyatshunoslik (M. Jey, M. Shturken va L. Kartrayt, D. Baxmann-Medik) doirasida vizual madaniyat sotsiologiyasi tadqiq etilib, vizuallikka tayangan burilishlar va ular ta’sirida jamiyatda, madaniyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar o‘rganiladi. Vizuallikka asoslangan burilishlarning maqsadi tanqidiy tahlil orqali tasvir va obrazlarning tuganmas oqimini boshqarishdan iboratligi bu borada tadqiqot olib borgan aksariyat olimlar (U. Mitchell, G. Byom, K. Moksi, M. Bal, J. Elkins, M. Smit, L. Kartrayt, M. Holli, J. Herbert, M. Dikovitskaya, N. Mirzoyev)ning ishlarida ta’kidlangan¹⁴. Gumanitar tadqiqotlar sohasida kamida uchta vizual burilish sodir bo‘lgan. Birinchi vizual burilish 1920-1930-yillarda amalga oshgan. Bunga XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida kinematograf, komiks va fotografiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi sabab bo‘lgan. 1960-1980-yillarda amalga oshgan ikkinchi vizual burilish uchun televideniye va telekommunikatsiya tarmoqlari kashf etilishi va rivojlanishi xosdir. Zamonaviy inson esa Internet hamda kompyuter o‘yinlari taraqqiyoti bilan xarakterlanadigan uchinchi vizual burilishni boshdan kechirmoqda. 2000-yillarda ikkinchi yarmidan boshlangan mazkur jarayon sun’iy voqeliklar tasvirini reallikka yanada yaqinlashtirdi. Uchinchi vizual burilishning ijtimoiy-madaniy ahamiyati haqida mulohaza yuritish oldidan ushbu jarayonlarga retrospektiv yondashish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu borada E. Toffler “to‘lqinlari”ga tayangan ma’qul. Jamiyatning hozirgi holatida so‘nggi, uchinchi to‘lqin belgilari (media demassifikatsiyasi va ixtisoslashuvi, axborot ishlab chiqarishning iste’molchilar tomonidan soddashtirilishi, aloqa-kommunikatsiya vosita va kanallarining biznesda keng qo‘llanilishi va hkz.) kuzatilayotganligi inobatga olinsa, shartli ravishda ushbu bosqichning uchinchi vizual burilish bilan deyarli parallel ravishda boshlangan, deyish mumkin. Ikkinchi to‘lqin o‘z o‘rnini keyingisiga bo‘shatishiga ilk ishora sifatida kabelli televideniyaning ommalashishini qabul qilish mumkin. Aynan u global ommaviy auditoriyaning qayta segmentlarga ajralish jarayonini boshlab berdi. Keyingi ishora Internet tarmog‘ining barcha uchun ochiq, erkin foydalaniladigan servisga aylanishi bo‘ldi. Bu XX asrning 90-yillari boshiga to‘g‘ri keladi. Shu kabi o‘zgarishlar fonida virtual muhitda Web2.0 texnologiyalari negizida o‘zgacha, interaktiv, muloqotga tayyor, kontentni tanlab iste’mol qilishga

¹² Барт, Р. Избранные работы: Семиотика: Поэтика: Пер. с фр. / Сост., общ. ред. и вступ. ст. Г. К. Косикова.— М.: Прогресс, 1989 – С.131

¹³ Фитч У. Т. Эволюция языка / Пер. с англ. и науч. ред. Е. Н. Панова. — М.: Языки славянской культуры, 2013. — С.469

¹⁴ Кудряшова, Е. А. Новая визуальная культура в медиaprостранстве // Век информации (Сетевое издание), 2019. Т.3 № 3(8) июль 2019. [https://doi.org/10.33941/age-info.com33\(8\)8](https://doi.org/10.33941/age-info.com33(8)8)

moyil auditoriya shakllandi. Bu auditoriya uchun talqin tasvirdan ustunlik qilib, massmedianing tushuntirish funksiyasi birlamchilik kasb etmoqda. Mazkur vaziyatda esa axborotni yetkazishda storitelling, ya'ni narrativlar orqali xabar berishning o'rni mustahkamlandi.

Vizual narrativ – tasvirga lingvistik kodga muqobil tizim sifatida qarash hamda strukturalistik yondashuv tufayli shakllangan tushuncha. Unda voqealar bayoni gaplar emas, statik kadrlar ketma-ketligi orqali beriladi va shu jihati uni audiovizual formatlarga yaqinlashtiradi. O'z xususiyatlariga ko'ra, vizual narrativ bosma matn va audiovizual matn oralig'ida joylashgan hodisa. Uning tasvir imkoniyatlari har ikkisidan ancha yuqori, biroq ta'sirchanlik jihatidan bunday deb bo'lmaydi. Vizual va verbal qator uyg'unligi va o'zaro chambarchasligi vizual narrativning polikod (ko'p kodli) yoki polifonik hodisa sifatida e'tirof etilishini ta'minlaydi. Verbal qator implitsit (yashirin) bo'lishi ham mumkin biroq har qanday holatda ham ahamiyatlilik jihatidan tasvirdan keyingi o'rinda turadi. Shu bois vizual narrativlar auditoriyasiga nisbatan tomoshabin-o'quvchi yoki o'quvchi-tomoshibin iborasini qo'llash joiz.

Bob bo'yicha xulosalarni umumlashtirgan holda, vizual narrativga quyidagicha ta'rif berish mumkin: vizual taqdimot uchun moslangan, mazmunini verbal narrativga aylantirish mumkin bo'lgan semantik tuzilma.

Dissertatsiyaning **“Vizual narrativ asarlar turlari va qo'llanilish usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida vizual narrativ asarlar o'ziga xosligi, poetikasi va semantik xususiyatlari o'rganilgan, vizual narrativlar tasnifi amalga oshirilgan hamda sekvensional formatlarda narrativning xususiyatlari komikslar misolida tadqiq etilgan.

Vizual narrativlar turli kommunikatsiya tizimlari kesishuvida shakllangan, poeziya va tasviriy san'at qonuniyatlari qorishuvini o'zida mujassamlashtirgan hodisa. Agar badiiy adabiyot vaqt kesimidagi o'zgarishni so'z orqali ifodalab bersa, tasviriy san'at o'zgarayotgan obyekt yoki subyektning voqea-hodisalar chizig'i muayyan nuqtasidagi xususiyatini tasvirlaydi. Vizual narrativ esa sodir bo'layotgan o'zgarishni tomosha qilish imkoniyatini taqdim etadi.

Berilayotgan mazmundan ko'zlangan maqsadga ko'ra tijoriy va PR, ma'rifiy, estetik-ko'ngilochar vizual narrativlar farqlanadi. Mazmun asosiga ko'ra esa ular fikSIONAL (“fiction” – to'qima), nofikSIONAL (“non-fiction” – to'qima emas, realikka asoslangan) bo'ladi. Bundan tashqari, tasvir orqali beriladigan narrativlarning statik, dinamik va interaktiv turlari mavjud. Ishning obyektini sifatida aynan statik vizual narrativ namunalarini tanlandi. Boisi, vizual narrativ deganda dissertatsiyada aynan harakatsiz tasvirga asoslangan, ko'rish sezgisi orqali qabul qilinadigan tuzilma tushuniladi. Ishda vizual narrativ ikki alohida guruhga – singulyar (yakka tasvirga tayangan) va sekvensional (tasvir ketma-ketligiga tayangan) vizual narrativlarga ajratilgan. Bu bilan vizual narrativ faqatgina sekvensional emasligi, narrativlik tasvirning barcha shakllariga xos bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Tasvir eksplitsit (tashqi, oshkora) va implitsit (ichki, yashirin) verballikka ega bo'lishi mumkin. Eksplitsit verballikda tasvir va so'z uyg'unligi uch variantda bo'ladi: 1) ulardan birining dominantligiga asoslanadi; 2) konfliktga tayanadi; 3) indifferentlik (parallelizm) ustiga quriladi.


Implitsit verballik – tasvirning verbal “yuk”ka egaligidir. Rossiyalik olimlar implitsit verballikka ega vizual narrativlarni o‘rganishda keng va tor miqyosdagi yondashuvlarni farqlaydilar¹⁵. Keng ma’noda har qanday tasvir ichki ssenariy, harakat-holat dramaturgiyasi, asosiy personajlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Tor ma’noda implitsit verballikka ega vizual narrativlar deganda syujeti so‘z orqali ifoda topishi, ya’ni verbal narrativga o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan tasviriy san’at hamda fotografiya namunalarini tushunish lozim.

Vizual narrativga oid tadqiqotlarni ikki asosiy yo‘nalishga ajratish mumkin. Birinchi yo‘nalish matn lingvistikasi an’analariga tayansa, boshqasi ko‘proq umumiy semiotika nuqtayi nazaridan mavzuni o‘rganadi. Ya’ni dastlabki tip izlanishlar tasvirga “matn” sifatida qaraydi, ikkinchi tip esa tasvir va belgilar mazmunini “ochish” bilan shug‘ullanadi. Lingvistik yondashuv til va tasvirning o‘ziga xosliklarini, o‘zaro farqli jihatlarini tadqiq etadi. Biroq, bizningcha, vizual narrativlarda tasvir va verballikning uyg‘un jihatlarini o‘rganish muhim. Verbal va vizual bayon o‘rtasidagi umumiy xususiyat sifatida vaqt belgisi, boshqacha aytganda – temporallikni alohida e’tirof etish lozim. Singulyar vizual narrativlarda yopiq, yashirin temporallik kuzatiladi (1-chizma). Bunda tasvirda muayyan vaqt chizig‘ining aniq belgilangan nuqtasida sodir bo‘lgan (bo‘layotgan) voqea-hodisa, harakat yoki muayyan obyekt yoki subyektning shu davrdagi holati, ko‘rinishi aks ettiriladi. Bunda verbalizatsiya individual kognitiv jarayon natijasida, muayyan kontekst chegarasida amalga oshiriladi.



1-chizma. Singulyar vizual narrativdagi yopiq temporallik (tadqiqotchining o‘z ishlanmasi)

Sekvensional narrativda jarayon to‘liq, boshlang‘ich nuqtadan yakuniy nuqtagacha bo‘lgan barcha voqea-hodisalar jamlangan va tizimlangan holda ko‘rsatiladi (2-chizma). Dinamikani “A”-holatning “D”-holatga o‘zgarishi deb olsak, singulyar (yakka tasvirga tayangan) narrativ boshlang‘ich (“A”), yakuniy (“D”) yoki ular o‘rtasidagi kontekstual ahamiyatga ega boshqa bir holatni aks ettiradi. Sekvensional vizual narrativ esa “A”→“B”→“V”→“G”→“D” jarayonini to‘liq ko‘rsatib beradi.



2-chizma. Sekvensional vizual narrativdagi ochiq (oshkora) temporallik (tadqiqotchining o‘z ishlanmasi)

¹⁵ Злыднева, Н. Визуальный нарратив: опыт мифопоэтического прочтения. – Москва: “Индрик”, 2013. – С.18

Vizual narrativ – statik tasvirning o‘zi yoki verbal va statik vizual qator o‘rtasidagi aloqa (parallellik, zidlik) orqali amalga oshiriladigan bayon. U vaqt kesimidagi o‘zgarish (hikoya) jarayonini (sekvensional vizual narrativ) yoki uning muhim nuqtasini (singulyar vizual narrativ) o‘zida aks ettiradi. Unda tasvir – dominant, verballik, so‘z esa uning illustratsiyasi yoki kontekst shakllantiruvchi element vazifasini bajaradi. Mohiyatan, vizual narrativ – odatiy matn+illustratsiya (tasvir) kombinatsiyasining teskarisidir. Unda matn tasvirning illustratsiyasi vazifasini bajaradi va, kontekst yaratuvchi omil bo‘lmagan paytlarda, u vizual qatordan ajratilganda yoki vizual qator ichiga yashiringanda ham asosiy ma’no deyarli o‘zarishsiz saqlanib qoladi.

1-jadval. Vizual narrativlarning yo‘nalishlar bo‘yicha tasnifi

Tur	Vizual narrativ shakllari	Mazmun o‘ziga xosligi
Adabiy-badiiy	tasviriy va foto san’at janrlari, grafik roman, komiks, surat-kitob va hkz.	badiiy to‘qima, sahnalashtirishga asoslangan vizual narrativlar bo‘lib, o‘zida adabiyot, tasviriy san’at, fotografiya, kinematograf, animatsiya asoslarini uyg‘unlashtiradi
Publitsistik	komiks, komik-strip, karikatura, fotopublitsistik janrlar, intervyu-illustratsiya, statik infografika, chartlar (data vizualizatsiya) va hkz.	real ijtimoiy mavzular, muammolarni tasvirlash, tushuntirish, yoritishni maqsad qiladi. Badiiy to‘qima yo‘q, biroq badiiy ifoda vositalari, poetik san’atlardan foydalanish mumkin. To‘liq faktologik asosga tayangan holda yaratiladigan sekvensional va singulyar narrativlar vizual publitsistika deb ataladi
Tijoriy-targ‘ibot	reklama va PR posterlari, plakat, banner va hkz.	mahsulot yoki xizmat, g‘oya, mafkura, pozitsiya va qarashlarni ommaga tanitish, targ‘ib qilish maqsadida yaratiladi. Jozibadorlikni oshirish maqsadida badiiy to‘qima, poetik elementlardan keng foydalaniladi
Ijtimoiy-folklor	Selfi, demotivatorlar, memlar va hkz.	virtual olamda maqsadli yoki stixiyali tarzda shakllantiriladi. Ijtimoiy media platformalarida yaratiladi va ommalashadi. foydalanuvchilarning fotoxosting va ijtimoiy media sahifalariga joylagan shaxsiy (selfi, turli sohalardagi faoliyat va tajriba (tashrif buyurilgan joylar, maishiy hayot lavhalari va hkz.) ni muhrlagan suratlar) hamda ulashma vizual kontent tushuniladi. Vizual folklor esa stixiyali tarzda vujudga keluvchi hodisa bo‘lib, bunga asosan demotivator va mem tasvirlar kiradi

Vizual narrativlarning medium o‘ziga xosligi jihatidan foto va grafik turi farqlanishi qayd etildi. Bundan tashqari, sekvensional vizual narrativlarning ikki yirik janri – komiks va surat-kitob turlari tahlil etildi.

Surat-kitob (picturebook) – vizual adabiyotning yirik janri bo‘lib, ularni bayon tasvir dominantligi asosida amalga oshiriluvchi, matn qo‘shimcha ma’no yuki beruvchi yoki yashirin element bo‘lgan bosma nashr sifatida ta’riflash mumkin.

Zamonaviy surat-kitoblar bayon texnikasi jihatidan o‘ziga xos vizual adabiy janr sifatida ajratilishni taqozo etmoqda. Ularda verbal qator ham tasvirning bir qismidek qabul qilinadi. Odatda, implitsit verballik hisobiga, tasvir matndan ajratilganda ham muayyan ma’no saqlaydi. Matnda esa bunday holat kuzatilmaydi,

ya'ni tasvirdan alohida holatda kerakli ma'noni anglatmay qolishi mumkin. Shuningdek, surat-kitob mutlaqo so'zsiz (silent-book) ham bo'ladi.

Komikslar alohida vizual format, ba'zi olimlar ta'biri bilan aytganda esa – “sekvensional san'at”¹⁶ sifatida shakllanganiga bir asrdan ko'proq vaqt bo'ldi. Biroq ularning o'ziga xosligi – verballik va vizuallik chambarchasligi ancha uzoq o'tmishga va turli madaniyatlarga borib taqaladi.

Bugungi kunga kelib, komiks ijodkorligida jami 3 ta maktab shakllanganligini ko'rish mumkin: AQSh, Yevropa va Yaponiya. Komikslarning bugungi qiyofasi va global miqyosdagi nufuzi, nazariy asoslari aynan Amerika maktabi ta'siri ostida yaratildi.

Lug'at-ma'lumotnomalarda komiks tushunchasiga berilgan ta'riflarning ayrimlari eskirib qolgan. Birinchidan, Internet platformalar taraqqiyoti sharoitida komikslarning veb-formatlari ham jadal taraqqiy topmoqda. Ijtimoiy tarmoq va bloglarda mustaqil ijodkorlar chizgan komikslar ham o'z auditoriyasini topmoqda. Shunday ekan, komiksni faqat bosma format bilan cheklab bo'lmaydi. Ikkinchidan, komiks tasvir xususiyatiga ko'ra, boshqa turdoshlari xususan, surat-kitoblardan ajralib turadi. Sekvensional vizual narrativlarda har bir tasvir sintaktik birlik bo'lib, ularning ketma-ketligi “matn” hosil qiladi. Agar komiks, grafik roman va striplarda har bir kadr, tasvir “gap” bo'lsa, surat-kitobda tasvir “mikromatn” – asosiy matnning bir qismi sifatida taqdim etiladi. Uchinchidan, sekvensional vizual narrativlar, xususan komikslar, suratlar seriyasi shaklida ifoda etilib, mazmun, jarayon dinamikasi ana shu suratlar ketma-ketligi orqali taqdim etiladi. Ularda bayon verballik va vizuallik uzviyligi emas, balki tasvir ketma-ketligi orqali beriladi. To'rtinchidan, komikslarda syujet xarakteri turlicha bo'lishi mumkin.

Pulitser-Hyorst “matbuot urushlari” fonida shakllangan va ommalashgan komiks namunalarini o'rganish jarayonida quyidagi o'ziga xosliklar aniqlandi:

- 1) ushbu davrda yaratilgan komikslarning aksariyati yevropalik muhojirlar tomonidan chizilgan va ularda Yevropa kitob illustratsiyasi maktabi tajribasi seziladi. XIX asr oxiridagi ilk AQSh matbuot komikslari mazmuni satira va didaktika uyg'unligiga tayangan, deyish mumkin;
- 2) “yangi jurnalizm” talab qilgan soddalashtirilgan ingliz tili nafaqat o'quvchi, balki aksariyati muhojirlar bo'lgan rassomlar uchun ham qulaylik tug'dirdi. Surat-hikoyalar auditoriya va nashr o'rtasidagi til to'sig'ini olib tashlovchi kontent tipi sifatida o'z o'rnini mustahkamlab bordi;
- 3) ilk komikslarda matn va tasvir komponentlari uyg'unligi o'zgarib borganligini kuzatish mumkin. Ularning shakli surat-kitoblarni eslatuvchi formatdan asta-sekin o'ziga xos sekvensional formatga o'zgarib bordi.
- 4) bu davrda surat-hikoyalar yaratish sof ijodiy faoliyatdan ishlab chiqarish jarayoniga aylandi. Nashr adadini ko'paytirish, yangi komik-striplarni taqdim etish zarurati yengil, syujeti jo'n, gegga tayangan vizual kontentga bo'lgan talabni oshirdi.

Komikslar sanoatiga oid atamalarning ham aksar hollarda kinoindustriya, ssenariynavislikka oid terminologiya bilan mushtarakligini kuzatish mumkin. Shaklan komiks, manga, grafik roman, surat-kitoblarda narrativ kadrlar ketma-

¹⁶ Айснер, У. Комикс и последовательное искусство / пер. с англ. М. Заславского. — Москва : Манн, Иванов и Фербер, 2022.

ketligi asosiga quriladi. Bu texnika kino, animatsiya va umuman, audiovizual medianing barchasi uchun ham xos. Mohiyatan, sekvensional vizual narrativ – statik film; video kadrlarining o‘qish, ko‘zdan kechirish uchun mos, “kitoblashtirilgan” tarzda taqdim etilishidir. Bunda tomoshabin-o‘quvchi sahifalarni varaqlashi, kontentning istalgan joyiga istalgan vaqtda qayta olishi mumkin. Audiovizual kontentda esa tomoshabin navigatsiyani bevosita amalga oshira olmaydi. Shu ma’noda biz sekvensional vizual narrativlarni bosma va audiovizual media oralig‘ida yuzaga kelgan sintetik hodisa deb ataymiz.

Amerikalik tadqiqotchi E. Kaputoning vizual storitelling taksonomiyasiga¹⁷ ko‘ra, vizual storitelling ko‘z orqali qabul qilinadigan barcha media kanallarni umumlashtiradi. Dissertatsiyada vizual narrativ va vizual storitelling tushunchalarini audiovizual media kontentdan alohida o‘rganish lozimligi ta’kidlanadi. Shu bois, Kaputo taksonomiyasining ilmiy ahamiyatini pasaytirmagan holda, sekvensional vizual narrativlarning alohida taksonomiyasi taklif etildi (2-jadval).

2-jadval. *Sekvensional vizual narrativlar taksonomiyasi (tadqiqotchining o‘z ishlanmasi)*

Sekvensional vizual narrativlar										
Surat-kitoblar					Komikslar			Interaktiv vizual narrativlar		
Matnli surat-kitoblar	Matnsiz surat-kitoblar (silent-book)	Tovushli surat-kitoblar (sound-book)	Taktil surat-kitoblar	Interaktiv surat-kitoblar	Komik-striplar	Komiks jurnal va kitobchalari	Grafik romanlar	Manga va boshqa Osiyo komikslari	Veb-komiks va vebtunlar (web-toon)	Vizual novellalar (syujetli kompyuter o‘yinlari)
Syujet dinamikasi past, ba’zan syujetsiz					Syujet bo‘lishi shart va uning dinamikasi yuqori, kinonikiga yaqin			Navigatsiya, bo‘lishish imkoniyati, chiziqli bayon		Tanlash imkoniyati, ko‘p variantli syujet chizig‘i

Dissertatsiyaning **“Jurnalistika va publitsistikada vizual narrativ: tendensiya va istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida vizual narrativning zamonaviy jurnalistikada namoyon bo‘lish holatlari hamda O‘zbekiston mediasida vizual narrativlar rivojining tendensiya va istiqbollari o‘rganildi.

Mediada vizual kontent tasnifini aynan narrativlik bilan bog‘lashni taklif qilinmoqda. Ya’ni bosma va internet-mediadagi statik va dinamik vizual kontentni ilustrativ-bezak va narrativ vizual kontent tiplariga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Ilustrativ-bezak vizual kontent – matn yoki sahifa, rukn tematikasiga urg‘u beruvchi, kontekstual ahamiyatga ega vizual elementlar, ya’ni matn shrifti, sahifada joylashuvi, rangi, sahifa foni, turli vizual effektlar, illustratsiyalar

¹⁷ Caputo, T. C. (2003). Visual storytelling: The art and technique. Watson-Guptill Publications. P.29 - <https://archive.org/details/visualstorytelli0000capu/page/28/mode/2up?view=theater>

(mavzuga mos umumiy tipdagi foto, surat, kollaj, gif-animatsiya, videoillustratsiya va hkz.).

Narrativ vizual kontent – klassik matn funksiyasini qisman yoki to‘liq bajaruvchi vizual tarkib. Unda fikr, g‘oya, xabar to‘lig‘icha yoki qisman aynan tasvir orqali beriladi. Bunday tipdagi vizual kontentga misol sifatida tasvir bayonining barcha turlarini keltirish mumkin. Narrativ vizual kontentning asosiy belgilari quyidagilar: 1) personaj yoki obyekt; 2) syujet va kompozitsiya; 3) zamon va makon sharoitlari. Voqea-hodisa yoki personaj-obyekt birlamchiligiga ko‘ra narrativ vizual kontentni ham ikki yirik guruhga ajratish mumkin: lirik-badiiy (fotohikoya) va informatsion (fotoreportaj, fotohisobot) vizual kontent. Birinchi guruh vizual kontentda personaj-obyekt birinchi planga chiqsa, ikkinchi guruhda aynan voqea-hodisa birlamchi hisoblanadi.

Auditoriyaning vizual formatni ustun bila boshlashi mediada vizual narrativlarning tematik-funksional jihatdan yangi qirralari ochilishiga, kontent taqdimotida yangi formatlarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda.

Illustratsiyali intervyu – sotsiologiya va psixologiya metodlari negizida shakllangan format. Bunda intervyu beruvchi intervyuening savollariga javobini suratlarda ifodalashi talab qilinadi. Jurnalistikada bunday intervyular dastlab tasviriy san‘at bilan bog‘liq resurs va nashrlar tomonidan joriy etildi. Internet-nashrlar orasida illustratsiyali intervyu formatidagi ilk material Germaniyaning “Ignant” onlayn art-jurnalida 2013-yilning 18-fevral sanasida chop etilgan.¹⁸ Bu materiallar statik va dinamik (animatsiyali intervyu) shaklda 2016-yilga qadar muntazam ravishda berib borilgan¹⁹. Tadqiqot davomida “illustratsiyali intervyu” deb nomlangan materiallarni o‘rganish davomida quyidagilar aniqlandi: 1) ayrim intervyularda tasvir (intervyu beruvchi chizgan suratlar) aynan illustrativ xarakterga ega, ya‘ni ularda javobning matn varianti ham mavjud va tasvir uning illustratsiyasi yoki vizual takrori vazifasini bajaradi; 2) ayrim intervyularda dialog gibrid tarzda, ya‘ni suhbatdoshlarning o‘zaro muloqoti ham matn (bosma so‘z), ham tasvir kanalidan foydalanilgan holda taqdim etiladi; 3) ayrim intervyularda ikki yoki undan ortiq vizual elementlar qo‘llanilgan (multivizuallik). Shunga ko‘ra, intervyuning bunday gibrid formatiga nisbatan “illustratsiyali intervyu” nomini qo‘llash uning funksionalini to‘liq qamramaydi. Boisi, bunda tasvir nafaqat matn illustratsiyasi, balki uning muqobili vazifasini ham bajaradi. Shunday ekan, formatni tavsiflashda aynan “vizual intervyu” istilohini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Hujjatli va publitsistik komiks – ijtimoiy yoki hujjatli ahamiyatga ega mavzularda yaratilgan sekvensional vizual narrativ. Jamiyat uchun ayni zamonda dolzarb bo‘lgan mavzularni yoritishda ham komikslar imkoniyatlaridan keng foydalanilishi mediamaydonda komiks-jurnalistika hodisasining alohida yo‘nalish sifatida shakllanib borishini ta‘minlaydi. Komiks-jurnalistika yoki grafik jurnalistika – axborot va ma‘lumotlarni komiks formatida taqdim etuvchi jurnalistik faoliyat yo‘nalishi. Jurnalistikaning komikslarni o‘zlashtirishi ildizlari o‘tgan asrning 50-60-yillariga, andegraund komikslar (underground comics, comix) rivojiga borib taqaladi. Bu paytga kelib komiks til bilmas immigrantlar va

¹⁸ Rán Flygenring / words by Caroline Kurze. URL: <https://www.ignant.com/2013/02/18/ran-flygenring/>

¹⁹ Illustrated Interview / Ignant. URL: <https://www.ignant.com/tag/illustrated-interview/>

bolalar uchun mo'ljallangan formatdan serqirra, turli tematikani ko'tara oladigan media shakliga aylangandi. 1992-yilda amerikalik jurnalist va rassom J. Sakkoning "Palestine" ("Falastin") ilmiy-ommabop hujjatli grafik romani chop etildi. Asar muallifning 1991-1992-yillarda G'azo sektorida ko'rgan-kechirganlari asosida yaratilgan. "Palestine" ("Falastin"), muallifi jurnalist bo'lganligi bois, aynan professional grafik jurnalistikaning ilk namunasi sifatida qayd etiladi.

Global miqyosda aynan komiks formatida professional jurnalistik kontent taqdim etayotgan nashrlar shakllandi ("Yahoo" (AQSh), "Mamma!" (Italiya)²⁰. Fransuz jurnali "La Revue Dessinée" 2013-yildan buyon har chorakda chop etib kelinmoqda. Jurnal faqat bosma variantda chiqadi. "La Revue Dessinée" da deyarli barcha materiallar komiks shaklida taqdim etiladi. AQShning "The Nib" onlayn nashri hujjatli komikslarga ixtisoslashgan mustaqil jurnal sifatida 2013-yilda "Medium" blog platformasida o'z faoliyatini boshlagan. 2016-2019-yillarda "First Look Media" mustaqil jurnalistika platformasi sho'basi sifatida ish olib borgan. 2020-yildan jurnalxonlar mablag'lari hisobiga faoliyat yuritadi. Komiks-jurnalistika ifoda imkoniyatlari nafaqat shu formatga ixtisoslashgan nashrlarda, balki jurnalistikaning boshqa o'ziga xos yo'nalishlarida ham qo'llanilmoqda. Jumladan, 2016-yilning may oyida "The New York Times" nashri karikaturist P. Chappatta va uning rafiqasi, jurnalist A. Vidmann bilan hamkorlikda "Inside Death Row" ("O'linga hukm qilinganlar kamerasida") nomli besh qismdan iborat grafik materiallar turkumini e'lon qildi. Mazkur kontent "The New York Times" saytida faqat obunachilar uchun ochib qo'yilgan²¹, biroq bu materiallar aslida mualliflar avvalroq o'tkazgan ko'rgazmaning mediaadaptatsiyasi bo'lib, ularning multimediyaviy taqdimot shakli ochiq tarzda tarmoqqa joylangan²². Komiks formatidan jurnalistik materiallar taqdimotida foydalanish holatlari Rossiya jurnalistikasida ham uchraydi. 2019-yilda Sankt-Peterburgning "KomFederatsiya" nashriyoti tomonidan "Kafka-kodeks" nomli hujjatli komikslar to'plami chop etildi. Undan "Novaya gazeta" nashrida 2018-2019-yillar davomida e'lon qilib borilgan grafik materiallar (komikslar) o'rin oldi. Ushbu komikslarda Rossiya Federatsiyasi miqyosida so'z erkinligi, inson huquqlariga qarshi olib borilgan harakatlar, eng shovshuvli sud ishlari tafsilotlari obrazli va sahnalashtirilgan shaklda taqdim etiladi.

Jurnalistikaning ma'lumotlar bilan ishlashga ixtisoslashgan yo'nalishi – data-jurnalistikada ham komikslar storitellingning samarali formatiga aylanib bormoqda. Jumladan, qirg'izistonlik data-jurnalist, Qirg'iziston Ma'lumotlar maktabi asoschisi A. Mambetova o'zining ijtimoiy tarmoq akkauntlarida rassom-illustrator B. Qaliev bilan hamkorlikda data-komiks formatidagi kontent tayyorlab ulashadi. Mazkur komikslarda statistik ma'lumotlarning auditoriyaning barcha qatlamlari tushunadigan darajada soddalashtirilgan talqini beriladi. Bu komikslar notijoriy asnoda taqdim etiladi.

²⁰ Gubitosa, C. (2021). The Rise and Fall of Comics Journalism Magazines and Their Legacy: Experiences of Graphic Storytelling in the USA, Italy, and France. URL: https://www.researchgate.net/publication/358437371_The_Rise_and_Fall_of_Comics_Journalism_Magazines_and_Their_Legacy_Experiences_of_Graphic_Storytelling_in_the_USA_Italy_and_France

²¹ Inside Death Row. By P. Chappatte and A. Widmann / Opinion / The New York Times. URL: <https://nyti.ms/3EayQji>

²² Windows on death row: Art From Inside and Outside the Prison Walls / URL: <https://www.windowsondeathrow.com/>

Tadqiqot davomida data-hikoyalarni komiks formatiga aylantirish tijoriylashtirilgan keyslar ham uchradi. Jumladan, Hindistonning data-tahlil va data-storitellingga ixtisoslashgan “Gramener” IT-kompaniyasi o‘z mijozlariga ma’lumotlarni turli formatlar, shu qatorda komiks shakliga aylantirish bo‘yicha xizmatlarini taqdim etadi.

O‘zbek vizual narrativi ildizlari tasviriy san’at bilan bir qatorda, satirik publitsistika, xususan jadid nashrlariga ham tutashgan. Bu borada “Mushtum” jurnaliga alohida to‘xtalish lozim. 1923-yil 18-fevral sanasida jadid ma’rifatparvarlari G‘. Yunus va A. Qodiriylar tomonidan asos solingan, “haqliq mushtumi”, “mazlumlar mushtumi”²³ bo‘lishi kutilgan “Mushtum” o‘zbek karikatura maktabi shakllanishida muhim rol o‘ynadi. 1920-yillar “Mushtum”i faoliyatida XIX asrning ikkinchi yarmida AQShda J. Pulitser asos solgan “yangi jurnalizm” prinsiplari bilan mushtaraklikni kuzatish mumkin. Jurnalning o‘tkir karikaturalari orasida ilk komik-striplarni ham ko‘ramiz. Ilk sonlardagi karikatura va striplar vizual tili juda sodda edi. Shuningdek, karikatura va komiks qahramonlarining dialog va monologlarini 1929-yildan keyingi sonlarda uchratish mumkin. Bloggerlik va ijtimoiy faollikning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi dolzarb ijtimoiy mavzularda ijod qiluvchi mustaqil rassomlarni yuzaga chiqardi. Shunday ijodkorlar qatorida “Habikatura”, “Rais buva”, “Uzbekistan Illustrated”, “Inkuzart” kabilarni sanab o‘tish mumkin. Asosan Internet tarmog‘ida ijod qiluvchi mazkur mediashaxslarning mavzu qamrovi o‘zaro farqlanadi. “Habikatura” yaratgan vizual narrativlarda jiddiy ijtimoiy-siyosiy tematika, publitsistik elementlar ko‘proq uchraydi. “Inkuzart”da esa strit-art (ko‘cha tasviriy san’ati, monumental tasviriy san’at turi) va alternativ (muqobil) media namunasini ko‘rishimiz mumkin. “Rais buva” va “Uzbekistan Illustrated” sahifalarida esa ko‘proq maishiy yumorga urg‘u berilishini ko‘ramiz.

O‘zbekistonda karikatura bilan bir qatorda komiks va unga turdosh sekvensional vizual narrativlar ham uyg‘onish davrini boshdan kechirmoqda. Biroq karikatura so‘z va OAV erkinligi, shaffoflik, oshkoralikka tayangan davlat siyosati impulsi bilan rivojlanayotgan bo‘lsa, komiks va grafik romanlarga qiziqishning ortishi mamlakatimizda Janubiy-Sharqiy Osiyo, xususan Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy ommaviy madaniyati ta’sirining ortib borayotganligi bilan bog‘liq. Shuningdek, AQSh komiks sanoati mahsulotlariga qiziqish bildiruvchilar ham ortib bormoqda. So‘nggi besh yillikda O‘zbekistonda vizual hikoyalar auditoriyasi son jihatdan ancha o‘ydi. Shu bois, bugun qator kitob do‘konlarida komiks va grafik romanlar assortimenti boyib borayotganligini, onlayn savdo platformalarida bunday asarlarni xorijdan buyurtma qilish xizmatlari shakllanganligining guvohi bo‘layapmiz. Biroq mahalliy mediabozorda bu auditoriyani qiziqtirishi mumkin bo‘lgan kontent deyarli yo‘q ekanligi xavotirli holat.

O‘zbekiston uchun komiks va grafik formatdagi narrativlarni yaratish amaliyoti butkul yangilik deb bo‘lmaydi. Biroq satira va hajvchilik bilan chambarchas ravishda rivojlangan grafik publitsistikadan farqli ravishda vizual yoki grafik adabiyot taraqqiyoti ancha oqsoq, turg‘unlikka tushib qolgan soha

²³ Qodiriy, A. «Mushtum» ta’rifida (1923). URL: <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/lr-1924/>

sanaladi. Uzoq yillar davomida grafik narrativ rivojida bir nechta muhim xronologik nuqtalarni belgilash mumkin:

1) 1996-yilda sobiq “Cho‘lpon” nashriyotida “Rasmlarda Vatan tarixi”²⁴ komiksi chop etildi. A. Mahkamov va H. Sodiqov muallifligidagi bu kitobdan O‘zbekiston tarixiga oid 22 ta hikoya o‘rin olgan.

2) 2001-yilda sobiq “Yozuvchi” nashriyoti tomonidan “Shum bola sarguzashtlari” chiqarilgan²⁵. Bu asar mashhur o‘zbek adibi G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasidan olingan parchaning grafik adaptatsiyasidir. Jami 16 betdan iborat. Oq-qora grafikaga tayangan turli plandagi tasvirlarda detallar ko‘p emas.

3) hozirda faoliyati tugatilgan “O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi” jamg‘armasi (“Fund Forum”) tomonidan 2011-yil oktabr-noyabr oylarida mashhur fransuz komiksist rassomi A. Kleriss ishtirokida komiks ijodkorligi bo‘yicha seminar-trening, mualliflik ishlari ko‘rgazmasi, “O‘zbekistonda komikslar” mavzusi ostida maxsus ko‘rgazma uyushtirildi²⁶.

4) 2013-yilda AQShning O‘zbekistondagi elchixonasi tashabbusi bilan “O‘zbekistonning ikki rivoyati” kitobi²⁷ nashr etildi. AQSh davlat departamenti tomonidan ajratilgan grant doirasida yaratilgan asarga milliy folklarga mansub ikki afsona: “Qirq qiz” va “Xonatlas” asos bo‘lgan.

5) davlat tomonidan kitobxonlik, xususan bolalar kitobxonligini rivojlantirish qo‘llab quvvatlana boshlandi. 2017-yilning 13-sentabr sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” PQ-3271-son qarori²⁸, 2018-yilning 4-may sanasida “Bolalar va o‘smirlar adabiyotini nashr etish tizimini yanada takomillashtirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 335-son qarori²⁹ qabul qilindi. Shundan so‘ng o‘zbek media segmentida bolalar uchun mo‘ljallangan nashrlar, bu yo‘nalishda ish olib boradigan nashriyotlar birmuncha faollashdi. Bolalar uchun komikslar, shuningdek, ilk surat-kitoblar (chop etildi.

6) o‘zbek tilidagi ilk superqahramonlik komiksi bo‘lishi kutilgan “Neon va Red” asari haqida 2018-yilda bildirish berildi³⁰. Biroq professional tarzda ishlangan komiks, ommalashmaganligi, talabning pastligi tufayli, birinchi sondan so‘ng, 2019-yilda loyiha muzlatib qo‘yildi.

²⁴ Mahkamov, A. Sodiqov, H. Rasmlarda Vatan tarixi (O‘zbekiston tarixidan lavhalar) – T.: “Cho‘lpon”, 1996. – 128b.

²⁵ G‘ulom, G‘. Shum bola sarguzashtlari – T.: “Yozuvchi”, 2001. – 16 b.

²⁶ Французский Институт проведет выставку комиксов / Газета.уз - <https://www.gazeta.uz/ru/2011/11/07/comics/>

²⁷ Benjamin, P. (Paul Benjamin) O‘zbekistonning ikki rivoyati / Two legends of Uzbekistan / Две легенды Узбекистана. – Toshkent, «NOSHIR» nashriyoti, 2013 – 84 b.

²⁸ Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2017 yil 13 sentabr – <https://lex.uz/docs/3338600>

²⁹ Bolalar va o‘smirlar adabiyotini nashr etish tizimini yanada takomillashtirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori. 2018 yil 4 may – <https://lex.uz/docs/3720516>

³⁰ В Узбекистане захотели сделать первый местный комикс и собирают на это деньги / Repost.uz - <https://repost.uz/pochem-comics-oka>

7) 2021-yilda Toshkentda O‘zbekistondagi ilk manga-studiya – “TokyoGroup” (“Gstudio”) o‘z faoliyatini boshladi va havaskor illustratordan va mualliflarni bir joyga birlashtirdi.

8) 2023-yilda “Perezvon” komikslar seriyasi bilan nomdosh platforma faoliyatini boshladi. Turkum asarning birinchi soni 2022-yil oktabr oyida taqdim etildi. Ham bosma, ham elektron (mobil ilova) shaklda tarqatildi. 2023-yilda platforma nomi “Doodleverse” ga o‘zgartirildi.

O‘zbekistonda vizual narrativlar bir tekisda rivojlanmayotganiga bir qator muammolar sabab bo‘lmoqda: 1) mediamuhitda tekstotsentrik va videotsentrik yondashuv ustun. Tadqiqot doirasida 228 nafar turli yoshdagi erkak va ayollar o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlar kontentni asosan matn (88,9%) va video (55,6%) formatlarida qabul qiladi. Biroq yosh kontingenti nuqtayi nazaridan, 18-20 yashar va undan yoshroq respondentlar matndan ko‘ra vizual (foto va grafika) formatlarini afzal biladi. Demak, yaqin o‘n yillikda statik vizual narrativlar auditoriyasi nisbati ortishi kutilmoqda. Bu esa mazkur formatdagi kontentni rivojlantirish zaruratini ta’kidlaydi; 2) kontent narxi qimmat. Bu ko‘p tomondan boshqa muammo – vizual ijodkorlar sonining kamligi bilan bog‘liq. Tahririyatlarda qalam haqi to‘lashning tarif setkasida vizual narrativning karikaturadan boshqa formatlari inobatga olinmagan. Shuningdek, bir kadrda iborat karikatura va ikki va undan ortiq kadrda iborat komik-strip narxlari ham differentsiatsiya qilinmaydi. Shu sababdan, sifatli vizual kontent, jumladan grafik narrativlar (karikatura, vizual intervyu, komiks va hkz.) yarata oladigan ijodkorlar frilanserlikni ma’qul ko‘rib, media bilan vaqtinchalik kollaboratsiyani ma’qul topmoqda. Bu esa vizual kontent tannarxining oshishiga sabab bo‘ladi.

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

- respondentlarning 58,9%i mashhur badiiy asarlarning grafik adaptatsiyalarini o‘qish istagini bildirdi;
- deyarli teng miqdordagi respondentlar vizual narrativlardan ko‘ngilochar (56,5%) hamda ma’rifiy (55,9%) kontent tayyorlashda foydalanish o‘rinli ekanligini ta’kidladi;
- vizual narrativlar, ayniqsa komikslardan jurnalistikada foydalanish o‘zini oqlashi 32,2% respondentlar javoblarida o‘z tasdig‘ini topdi.

XULOSA

Mazkur dissertatsiyada vizual narrativ va vizual storitelling hodisalari o‘rganildi, ularning imkoniyatlarini jurnalistika va publisistikada qo‘llash istiqbollari aniqlandi, vizual narrativlarning kommunikativ xususiyatlari, tarixiy ildizlari, o‘zbek media segmentida e’tibor qaratilmayotgan jihatlari, ta’sir xususiyatlari tadqiq etildi. Buning natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ijtimoiy-madaniy voqelikda vizual hikoyalar ahamiyatining kuchayishi axborot hajmining ortishiga javoban shakllandi. Zamonaviy texnologiyalarning taraqqiyoti va mavjud axborot massivlarini tizimlashtirish zarurati tasvir va obraz imkoniyatlarini kengaytirdi. Zero, tasvir axborotni ko‘rgazmali yetkazish imkoniyatiga ega. Obrazli hikoyalar (storitelling) esa shu axborotning ta’sirchan va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

2. Zamonaviy matn faqat bosma soʻz konstruksiyasi emas, u turli formatlarda, xususan, vizual shaklda ham boʻlishi mumkin. Shu bois, xalqaro miqyosda turli lugʻatlarda “matn” atamasining maʼno qirralari kengaytirilmoqda. Biroq oʻzbek tilining izohli lugʻatlarida ushbu termin maʼnolarida mazkur oʻziga xoslik qayd etilmagan.

3. Lingvistika, adabiyotshunoslik, falsafa, psixologiya doirasida turli aspektlarda tadqiq etib kelinayotgan narrativning vizual shakllariga semantik struktura sifatida yondashish maqsadga muvofiqdir. Vizual narrativ maʼnoni tasvir orqali ifodalashga tayanadi. Bunda ifoda vositasi uni tasviriy sanʼatga, mazmuni esa adabiyotga bogʻlaydi. Shunga koʻra, vizual narrativ – ham holatni, ham jarayonni koʻrsatib beradigan universal hodisa. Vizual narrativ poetik vositalardan keng foydalanadi. Unda syujet, kompozitsiya, temporallik (vaqt kesimidagi oʻzgarish, jarayon yoki vaqt chizigʻidagi lahzaning ifoda topishi) ning boʻlishi esa vizual adabiyot va vizual publitsistika haqidagi asosli mulohazalarni keltirib chiqaradi. Bu hodisalarning nazariy-metodologik asoslarini bir fan doirasida shakllantirib boʻlmaydi. Shu bois, Oʻzbekiston ilmiy doiralarida vizual tadqiqotlar sohasiga eʼtibor qaratish gumanitar fanlar rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Raqamli texnologiyalar va texnologik imkoniyatlar vizual narrativ imkoniyatlarini yanada oshirdi. Bugun u keng omma uchun tushunarli boʻlgan universal ifoda shakliga aylandi. Aynan tushunarlilik oʻz davrida komiks va karikaturalarni Gʻarb jurnalistikasining asosiy quroliga aylantirgan edi. Zamonaviy mediamuhitda vizuallik ahamiyatining ortishi natijasida jurnalistikaning voqelikni tasvirlash, tahlil va talqin qilish hamda unga taʼsir koʻrsatish vositalari koʻpaydi. Vizual narrativlar tahririyat kontentining muhim bir qismiga aylana boshladi. Oldindan maʼlum shakllar (komiks, karikatura) ning qoʻllanilish qamrovlarining kengayishi (komiks-jurnalistika, hujjatli publitsistik komikslar) qatorida yangi tasviriy formatlar (illustratsiyali intervyu) ning shakllanishi kuzatilmoqda.

5. Oʻzbekiston sharoitida vizual narrativlar juda sekin va notekis surʼatlarda rivojlanmoqda. Bunga asosiy sabablar kadrlar muammosi, vizual narrativ asarlarga bolalarga moʻljallangan va hajviy kontent sifatida yondashuvning ustunligi, mediamuhitda tekstotsentrik va videotsentrik yondashuvning kuchliligidir.

6. Tadqiqot davomida amalga oshirilgan keyslar tahlili shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonda vizual narrativlar auditoriyasi asosan veb-format va ijtimoiy media platformalarini maʼqul biladi. Shuningdek, tarix, mifologiya va folklor motivlari asosida yaratilgan grafik adabiyot namunalari qiziqish yuqori.

7. Tadqiqot natijalariga koʻra, Oʻzbekistonda vizual narrativlarning badiiy ijod (fiction) va publitsistika (non-fiction) sohalaridagi rivojlanish istiqbollarning quyidagi ssenariylarini shakllantirish mumkin:

- bosma formatning qimmatligi va tarqalish imkoniyatining cheklanganligi bois, vizual narrativ kontentni rivojlantirishda mobil va veb-versiyaga urgʻu berilishi, bosma format asosan bolalar kitoblari (surat-kitoblar) va buyurtma asosidagi adabiyotlar uchun saqlanib qolish ehtimoli yuqori;
- OAV orasida rassom shtat birligini tutib tura oladigan tahririyatlar kamligi bois, ular va frilanser rassomlar oʻrtasida kollaboratsiya rivojlanishi kutilmoqda;
- vizual format ilmiy-ommabop kontentning yetakchi ifoda vositasiga aylanishi;
- interaktiv va immersiv vizual narrativlar (kompyuter oʻyinlari) sohasiga qiziqish ortishi.

Ushbu xulosalar asosida quyidagilar taklif qilinmoqda:

1) jurnalistika nazariyasida vizual kommunikatsiya, vizual publisistika, komiks va manga bo'yicha media-kommunikatsiya, adabiyotshunoslik, tasviriy san'at va boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar kesishuvidagi dolzarb fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida:

- tegishli ilmiy tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalarida vizual tadqiqotlar (visual studies) ga ixtisoslashgan laboratoriya, markaz va kafedralarning tashkil etilishi;

- vizual tadqiqotlar sohasiga oid magistratura yo'nalishlarining ochilishi;

2) vizual tilda ish olib boradigan mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida:

- grafik dizayn, raqamli tasvir, multimedia, foto kabilar bilan ishlovchi mutaxassislar tayyorlaydigan muassasalarda storitelling va narrativ asoslarini o'rganishni yo'lga qo'yish;

- jurnalistika ta'lim yo'nalishlarida raqamli grafika, grafik dizayn, komiks va vizual publisistika bo'yicha tanlov fanlarni joriy qilish;

3) maktabgacha va maktab ta'limi doirasida bolalar va o'smirlarning vizual savodxonligi, tasvirni "o'qish" ko'nikmasini shakllantirib borish maqsadida:

- O'zbekistonda bolalar vizual adabiyotini, bolalar va o'smirlar auditoriyasi uchun ixtisoslashgan nashrlar faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi, davlat byudjeti va jamoatchilik mablag'lari hisobidan moliyalashtiriluvchi maxsus jamg'arma tashkil etish;

- bolalar va o'smirlar uchun hamda bolalar tomonidan yaratilgan kitoblar (an'anaviy va vizual adabiyot namunalari), shuningdek, davriy va veb-nashrlarga nisbatan soliq imtiyozlari joriy etish;

- maktab darsliklarga ilova tarzida fan doirasidagi hikoyalar (kashfiyot, tarixiy voqealar) aks ettirilgan grafik narrativlar to'plamlarini chop etish amaliyotini yo'lga qo'yish;

- o'zbek adabiyotining durdonalari sifatida tan olingan asarlarning grafik adaptatsiyalarini yaratish;

- adabiyot darslari dasturiga vizual adabiyot (grafik roman va novella) namunalarini ham kiritish;

4) tahririyatlarda yangi formatlarning ommalashuvini, OAV vizual kontenti sifatining oshishini ta'minlash maqsadida:

- turli formatdagi materiallar uchun haq to'lashning tariflarini qayta ko'rib chiqish hamda multimediaviy va yangi vizual formatlar uchun qalam haqi miqdorlarini belgilash;

- frilanser va yosh ijodkorlarni umumlashtiruvchi professional platforma shakllantirish va unda har bir mutaxassisning onlayn rezyume, portfoliosi joylanishini ta'minlash va bu orqali ish beruvchilar va frilanserlar hamda tajriba to'playotgan yosh kadrlar o'rtasida kollaboratsiyani yengillashtirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Fil.14.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ ЖУРНАЛИСТИКИ И
МАССОВЫХ КОММУНИКАЦИЙ УЗБЕКИСТАНА**

**УНИВЕРСИТЕТ ЖУРНАЛИСТИКИ И МАССОВЫХ
КОММУНИКАЦИЙ УЗБЕКИСТАНА**

НАЖМИДИНОВА ГУЛНОЗА УМАРОВНА

**ВИЗУАЛЬНЫЙ НАРРАТИВ В МЕДИА: ФОРМИРОВАНИЕ,
ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ**

10.00.09 – Журналистика (филологические науки)

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером № B2020.4.PhD/Fil1476.

Диссертация выполнена на базе Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.uzjoku.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Муминова Патима Изатуллаевна,**
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Маматова Якута Мухамеджановна,**
доктор филологических наук, профессор

Данияров Салим Мусурмонович,
доктор философии по филологическим наукам,
главный редактор объединенной редакции газет
«Янги Узбекистон» и «Правда Востока»

Ведущая организация: **Узбекский государственный университет мировых языков**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2024 года в ___ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.14.01 при Университете журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана (Адрес: 100147, город Ташкент, Центр-5, дом. 88. Тел.: (99871) 207-09-06; email: journalism.univer@gmail.com).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана. (Адрес: 100147, город Ташкент, Центр-5, дом. 88 Тел.: (99871) 207-09-06; email: journalism.univer@gmail.com).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 года.

(Протокол рассылки № ___ от «___» _____ 2024 года).

Ф.А.Муминов
Председатель Научного
совета по присуждению
ученых степеней,
д.ф.н., профессор

А.И.Сафаров
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению
ученых степеней,
д.ф.н., доцент

Н.Ф.Муратова
Председатель Научного семинара
при Научном совете
по присуждению ученых степеней,
д.ф.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современной медиасреде возрастает доля визуальной информации. Формируется поколение, воспринимающее действительность через изображения и образы. Размышления о клип-культуре и клип-сознании нашли свое отражение в сегодняшней социальной действительности. Также становится очевидным переход медиаканалов от текстоцентрического представления к визуальным, аудиовизуальным, мультимедийным формам. В этих условиях все большую популярность и актуальность приобретают научные исследования визуальности, визуального контента, визуальных нарративов и в целом – визуальной коммуникации. Это связано с несколькими факторами. Во-первых, изучение визуальности на современном этапе стремительного развития медиа и технологий облегчает понимание масштабов этих изменений, их влияния на человеческое восприятие, поведение, способ, методы и привычки общения. Во-вторых, навыки анализа и интерпретации визуального контента служат для продвижения таких аспектов, как смысловая нагрузка, контекст изображения и, таким образом, развитие критического мышления. В-третьих, в последние годы все больше развиваются сферы и направления, в которых визуализация приобрела фундаментальное значение. Поскольку они в большинстве случаев формируются на пересечении различных отраслей науки, их научное исследование требует новой, смешанной методологии.

В научных исследованиях глобального масштаба визуальность, особенно формы нарратива (повествования), основанные на изображениях, изучаются в различных аспектах. В частности, в таких областях, как культура и искусство, литература, лингвистика, коммуникология, психология, социология, их выбор в качестве научного объекта является ответом на социальную реальность, о которой мы говорили выше. В журналистике также одним из актуальных процессов является визуализация, представление информации и сведений в иллюстративных форматах. Научное изучение этих изменений требует рассмотрения не только классической журналистики и теории публицистики, но и исследований в таких сферах, как искусство, культурология, социология и психология.

Медиасреда Узбекистана развивается как часть глобального информационного пространства. В последние годы развитие информационной и медиа сферы, свобода слова и средств массовой информации, открытость деятельности государственных и управленческих органов стали одними из основных стратегических направлений развития страны. В этих условиях содержание масс-медиа претерпевает значительные изменения как по форме, так и по содержанию, узбекская медиа-практика ощущает необходимость в освоении новых методов презентации, а теория – в исследовании их специфики, особенностей и перспектив развития в национальном пространстве. Президент Республики Узбекистан Ш.Мирзиёев в своем поздравлении с 27 июня – Днем работников печати и средств массовой информации отметил, что преобразование количественных

показателей в качественные в информационной сфере, вывод национальной журналистики на новый уровень является актуальной задачей, узбекские медиа-компании также занимают достойное место на мировой информационной арене и стремятся активно участвовать в глобальных общественно-политических процессах. В качестве одного из решений в достижении эффективности в этом вопросе он подчеркивает необходимость «осваивать передовой зарубежный опыт, современные информационные технологии и аналитические методы, быть в постоянном поиске, воспитывать новое поколение нашей национальной журналистики»³¹. Поэтому особенно важно теоретическое исследование форм и методов презентации, набирающих популярность в медиаиндустрии, и предоставление оптимальных прогнозов относительно изменений, тенденций, происходящих на практике под их влиянием.

Диссертационная работа в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в пунктах о СМИ Указа Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»³², в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 21 октября 2019 года «О дополнительных мерах по развитию национального контента во всемирной информационной сети Интернет»³³.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с первым приоритетным направлением развития науки и техники республики: «Формирование и пути осуществления системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Визуальность, визуальные образы и визуальные нарративы детально изучены в научных исследованиях, касающихся сфер искусствоведения (У. Митчелл, В. Склярова, Н. Мирзоев, Н. Злыднева)³⁴, культурологии и социологии (Д. Бахманн-Медик, Е. Ищенко, А. Иванов)³⁵.

³¹ Ш. Мирзиёев. Поздравление Президента работникам печати и средств массовой информации. 27 июня 2022 года. URL: <https://president.uz/ru/lists/view/5294>

³² Указа Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы». 28 января 2022 года. URL: <https://lex.uz/uz/docs/5841077>

³³ Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по развитию национального контента во всемирной информационной сети Интернет». 21 октября 2019 года. URL: <https://lex.uz/en/docs/4566281>

³⁴ Mitchell, W.J.T. Picture Theory. Chicago: University of Chicago Press. 1994. Склярова, В.С. Визуальные повороты и зрелищная культура: теоретические аспекты и культурные практики // Вестник культуры и искусств. 2017/4 (52). Мирзоев, Н. Как смотреть на мир. — М.: Ад Маргинем Пресс, Музей современного искусства «Гараж», 2019. Злыднева, Н. Визуальный нарратив: опыт мифопоэтического прочтения. - М.: «Индрик», 2013.

³⁵ Бахманн-Медик, Д. Культурные повороты. Новые ориентиры в науках о культуре / Пер. с нем. С. Ташкенова. — М.: Новое литературное обозрение, 2017. Ищенко Е. Н. «Визуальный поворот» в современной культуре: опыт философской рефлексии // Вестник ВГУ. №2. 2016. Иванов, А.Г. Социальная мифология как развивающаяся система // Вестник Пермского университета. Философия. Психология. Социология. 2016. Вып. 4(28).

Подход к нарративу как к объекту научного исследования начался во второй половине XX века. Поэтому исследования в этой области имеют актуальное значение для мирового сообщества. Научные исследования М. Бахтина, В. Шмидта, С. Тодорова, С. Четмана, В. Тюпы, Д. Германа, М. Райяна³⁶ сыграли важную роль в развитии нарратологии как науки.

Визуальные нарративы как научный объект изучены в немногих работах. Среди таких исследований можно привести научные исследования таких ученых, как Т. Капуто, Ш. Пимента, Р. Пувайя, Н. Злыднева, М. Скаф³⁷. В этих работах нарратив изучен с точки зрения особенности техники подачи содержания посредством изображения и во взаимосвязи с аудиовизуальными и интерактивными формами (Капуто, Пимента, Пувайя), как предмет изобразительного искусства (Злыднева), как вид литературно-творческой деятельности (Скаф). Тема нарратива в СМИ исследовалась Д. Качановым в рамках мультимедийной журналистики³⁸. Тема визуальных нарративов в этом аспекте не исследована.

